

1.8. AMALIY MASHG'ULOT. BIOLOGIK INFOGRAFIKA TUZISH

Maqsad: biologiyaga oid ma'lumotlar infografikasini tuzish va taqdim etish.

Ish tartibi

1. Infografika uchun mavzu tanlash.
2. Infografika maqsadlarini aniqlash.
3. Infografika uchun ma'lumotlar yig'ish.
4. Yig'ilgan ma'lumotlarni tartibli joylashtirish.



5. Infografika dizayni ustida ishlash.

Infografika bu – murakkab ma'lumotlarni auditoriyaga tez va tushunarli tarzda yetkazishga qaratilgan ma'lumotlar yoki g'oyalar vizualizatsiyasi. Tasvirlardan tashqari, infografika vositalariga grafiklar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar, xaritalar, ro'yxatlar kiradi.

Infografika – o'tilgan mavzuning mohiyatini tezda tushunish imkonini beruvchi minimal qo'shimcha matnga ega tasvirlar va diagrammalar to'plami.

Ta'limda infografikadan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- mavzuni tez ochish;
- murakkab jarayonlarni tushuntirish;
- tadqiqot natijalari va so'rov ma'lumotlarini taqdim etish;
- uzun maqola yoki hisobotni umumlashtirish;
- biror mahsulotning turli variantlarini taqqoslash;
- muammo haqida xabardorlikni oshirish yoki g'oyalarni taqdim etish.



Axborot infografikasini yaratish bo'yicha tavsiyalar:

- Har bir bo'limga taqdim etilgan ma'lumotlar mohiyatini aniq ifodalovchi sarlavha tanlang;
- Ma'lumotlarni o'qish qulay bo'lishi uchun bo'limlarni raqamlang;
- O'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun ranglar, vizual elementlar turlarini va ularning yo'nalishini o'zgartiring;
- Ma'lumotlarni piktogramma va tasvirlar bilan ifodalang.